

UDK: 616:576.88:575.1

NAVOIY VILOYATINING AYRIM HUDUDLARIDA GELMINTOZLARNI TARQALISHI

*J.M.Isayev-katta ilmiy xodim
I.A.Ulashov-katta ilmiy xodim
I.G'.Usmanov-kichik ilmiy xodim
U.I.Muxtorov-tayanch doktorant
Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti*

Annotatsiya *Ushbu maqolada Navoiy viloyatining ayrim xo'jaliklarida gelmintlarni tarqalish darajasi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Gelmint, gelmintoz, boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlar, moniezioz, marshallagioz, gelmintoovoskopiya, fyulleborn ketma-ket yuvish.*

Kirish. Chorva mollari sonini va mahsuldorligini oshirish, ular orasida uchraydigan turli xil invazion kasalliklar, jumladan gelmintozlar jiddiy to'siq bo'lib hisoblanadi. Gelmintozlarning oldini olish, bu kasalliklarga qarshi yangi, mahalliy va yuqori samarali uslub-vositalar ishlab chiqish, bu vositalarni gelmintozlarga qarshi kurash amaliyotiga keng-ko'lamda qo'llanishiga erishish lozim.

Ushbu muammoni hal qilish, ya'ni chorvachilik, umuman insoniyat uchun xavfli bo'lgan gelmintozlarga qarshi samarali kurash vositalarni yaratish, ayniqsa yangi, mahalliy antgelmint vositalar yaratish va ulardan foydalanish uslublarini ishlab chiqish dolzarb muammo ekanligi shubhasizdir.

Oxirgi yillarda chorvachilikda vujudga kelgan o'zgarishlar, ya'ni mulkchilikshaklining o'zgarishi, chorvachilik xo'jaliklarining hajmi va ularda chorva mollarini saqlash va oziqlantirish texnologiyasidagi o'zgarishlar turli gelmintozlarning tarqalish darajasi, asosiy gelmintozlar, ularning yil mavsumlari bo'yicha o'zgarishi (dinamikasi)ni aniqlash va bu ma'lumotlarga asoslangan davolash-profilaktika chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, gelmintozlarni davolash va oldini olishning asosiy omili bu degelmintizatsiya bo'lib bu tadbir turli xil kimyoviy preparatlar hamda ayrim o'simlik tabiatli vositalar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda antgelmint vositalarning asosiy qismi kimyoviy preparatlar bo'lib, ular turli kimyoviy guruhlariga mansub, ya'ni organik moddalar, tuzlar, murakkab tuzilishga ega bo'lgan moddalardir. Bu vositalarning kimyoviy xususiyatlari bilan antgelmint faolligining bir-biriga bog'liqligini aniqlash, yangi antgelmint vositalar yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va kimyo mutaxassislariga tegishli tavsiyalar berish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan chorvachilikni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, chorva mollari mahsuldorligi oshirish va uning sifatini yaxshilashda turli kasalliklar, jumladan gelmintozlarga qarshi kurash, bu tadbirni amalga oshirishda mahalliy vositalardan foydalanish dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi.

Ayniqsa hozirgi davrda ro'y berayotgan o'zgarishlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni jadallashtirishga qaratilgan, klastr asosida faoliyat yuritadigan xo'jalik va birlashmalardan gelmintozlarga qarshi chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshiriborish talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Chorvachilik yuritishning hozirgi sharoitida chorva mollarining asosiy gelmintozlarining tarqalish darajasini aniqlash. Hayvon yoshi va yil mavsumlari bo'yicha dinamikasini aniqlash.

Material va metodlar. Ilmiy tadqiqot ishlari Navoiy viloyatining ayrim hududlarida tekshirish ishlari olib borildi. "Zarolmos qorako'l" f.x. hududida 40 bosh qo'ylardan, "Qizilcha" sh.x. hududida esa 20 bosh qo'ylardan va "Istiqlol" n.x. 20 bosh qo'ylardan tezak namunalari olinib tekshiruvdan o'tkazildi.

Tadqiqotlar davomida olingan namunalar veterinariya ilmiy tadqiqot instituti gelmintologiya laboratoriyasida olib borildi. Gelmintoovoskopik tekshirishlardan fyulleborn va ketma-ket yuvish usullaridan foydalanib tekshirildi.

Natijalar va ularning tahlili. Qo'ylarda gelmintlarni tarqalishini o'rganish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qo'ylardan olingan tezak namunalarini tekshirish natijalari.

Hudud	Hayvon bosh soni	Fulleborn va ketma-ket yuvish usulida tekshirilganda									
		Nematoderoz		Moniezioz		Marshallagioz		Boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlar		Gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi	
		n=	%	n=	%	n=	%	n=	%	n=	%
Zarolmos qorako'l f.x.	40	19	47.5	2	5	12	30	20	50	37	92.5
Qizilcha sh.x.	20	8	40	4	20	9	45	14	70	17	85
Istiqlol n.x.	20	-	-	-	-	-	-	1	-	1	5
Jami:	80	27	33.7	6	7.5	21	26.5	35	43.5	55	68.5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Zarolmos qorako'l f.x. hududida 40 bosh qo'ylardan olingan tezak namunalari tekshirilganda ularning 19 boshida *nematoderoz*, 2 boshida *monezioz*, 12 boshida *marshallagioz* va 20 boshida *boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlari* qo'zg'atuvchilarining tuxumlari borligi aniqlandi. Gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi esa 92.5 foizni tashkil etdi.

Qizilcha sh.x. hududida 20 bosh qo'ylardan olingan tezak namunalari tekshirilganda ularning 8 boshida *nematoderoz*, 4 boshida *monezioz*, 9 boshida *marshallagioz* va 14 boshida *boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlari* qo'zg'atuvchilarining tuxumlari borligi aniqlandi. Gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi esa 85 foizni tashkil etdi.

Istiqlol n.x. hududida 1 boshida *boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlari* qo'zg'atuvchilarining tuxumlari borligi aniqlandi. Gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi esa 5 foizni tashkil etdi.

Xulosa. Respublikaning markaziy hududi Navoiy viloyatining ayrim xo'jaliklaridagi qo'ylar turli xil gelmintozlar bilan zararlangan bo'lib, gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi 68.5 foizni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиева Л. Х., Элмуродов Б. А., Орипов А. О. ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ ЖИВОТНЫХ И ЭКОСИСТЕМ В НИИ ВЕТЕРИНАРИИ //ББК 40.0 П78. – 2021. – С. 378..

2. Орипов А. О. и др. К вопросу о химиопрофилактике гельминтозов //Ветеринарна медицина. – 2013. – №. 97. – С. 396-397.

3. Орипов А. О. и др. Препараты против гельминтов овец в виде твердых дисперсий //Успехи современного естествознания. – 2019. – №. 3-2. – С. 169-175.

4. Usmonov I. et al. QORAMOLLARNING ANOPOLOTSEFALYATOZLAR //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 403-406.

5. Taylakov T. I. et al. MAYDA SHOXLI HAYVONLARNING MONIEZIOZIDA ANTGELMINTIKLARNI SAMARADORLIGI ANIQLASH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3 SPECIAL. – С. 955-958.
6. Usmanov I. G., Taylakov T. I. DISTRIBUTION OF MONIEZIOSIS AMONG SMALL HORNED ANIMALS IN THE MOUNTAIN RANGES AND MOUNTAIN REGIONS OF SAMARKAND REGION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 4. – С. 701-704.
7. Якимов К. Д., Ногаева У. В. БИОФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДА ТВЁРДЫХ ДИСПЕРСИЙ В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ //Молодая фармация-потенциал будущего. – 2022. – С. 938-945.
8. Орипов А. О. и др. Препараты против гельминтов овец в виде твердых дисперсий //Успехи современного естествознания. – 2019. – №. 3-2. – С. 169-175.
9. Халиков С. С. и др. ПОЛУЧЕНИЕ МОДИФИЦИРОВАННЫХ МЕХАНОХИМИЧЕСКИМ ПУТЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕПАРАТОВ И ИХ СВОЙСТВА //Актуальные проблемы сельского хозяйства горных территорий. – 2019. – С. 324-328.
10. Рузимуродов, М., Маматкулов, И., & Игнатов, П. (2018). Бруцеллёзная искусственная вакцина (бив) для профилактики бруцеллёза животных. *in Library*, 18(2), 145-147.
11. Рузимуродов, М. (2018). Новые инновационные подходы в борьбе с бруцеллёзом. *in Library*, 18(2), 14-16.
12. Рузимуродов, М., Мамадуллаев, Г., Тухлиев, А., & Рахимов, А. (2016). Специфическая активность ППД туберкулинового диагноста. *in Library*, 16(1), 14-15.
13. Рузимуродов, М., Баженов, Л., Артемова, Е., & Тен, Р. (2008). Использование кристаллогенных свойств бруцелл для их идентификации и дифференциации. *in Library*, 3(3), 21-22.
14. Баженов, Л. Г., Рузимуродов, М. А., Артемова, Е. В., & Тен, Р. М. (2008). Изучение и использование кристаллогенных свойств бруцелл для их идентификации и дифференциации. *Bulletin of the International Scientific Surgical Association*, 3(1), 21-22.
15. Рузимуродов, М., & Тен, Р. (2004). Применение средств специфической профилактики в борьбе с заболеваниями сельскохозяйственных животных бруцеллезом в Республике Узбекистан. *in Library*, 1(1), 61-63.
16. Джураев, О., Мамадуллаев, Г., & Рузимуродов, М. (1999). Сравнительная эффективность Ррд-туберкулина и skj-туберкулина в аллергодиагностике туберкулеза крупного рогатого скота. *in Library*, 1(1), 4-5.
17. Рузимуродов, М. А., Улугмуродов, А. Д., Саидов, А. А., Куватов, Б. Х., Жалилов, Ж., & Солиев, Х. Э. Препараты для диагностики бруцеллеза в Узбекистане. In *Современные достижения в решении актуальных проблем агропромышленного комплекса: материалы международной научно-практической конференции, посвященной 100-летию Института экспериментальной ветеринарии им. СН Вышелесского (Минск, 15-16 сентября 2022 г.)* (pp. 62-64).
18. Рузимуродов, М. А., & Нематов, А. С. БРУЦЕЛЛЕЗ КАК ПРИРОДНО-ОЧАГОВАЯ ИНФЕКЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Министерство здравоохранения Республики Беларусь УО «Витебский государственный медицинский университет»*, 64.
19. Ахмадалиева, Л. Х., Элмуродов, Б. А., Орипов, А. О., Салимов, Х., Рузимуродов, М. А., Исмазова, Р. А., ... & Улугмуродов, А. Д. (2021). ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ ЖИВОТНЫХ И ЭКОСИСТЕМ В НИИ ВЕТЕРИНАРИИ. In *Проблемы трансформации естественных ландшафтов в результате антропогенной деятельности и пути их решения* (pp. 378-382).
20. Bajenov, L. G., Ruzimurodov, M. A., Artyomova, E. V., & Ten, R. M. (2008). Study and application of crystallogenic properties of Brucella for their identification and differentiation. *Bulletin of the International Scientific Surgical Association*, 3(1), 22-23.
21. Рузимуродов, М. А. (2018). Новые инфекционные подходы в борьбе с бруцеллезом. *Ветеринария тиббиёти*, (2), 14-15.